

**“ULISS’ ROMANIDA MODERNIZM VA ONG OQIMI USLUBI**

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti

Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek tili)

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Jalilova Shohida Ravshan qizi

ANNOTATSIYA: *Jeyms Joysning “Uliss” romani XX asr adabiyotining eng muhim va murakkab asarlaridan biridir. Asar 1922-yilda nashr etilgan bo'lib, Irland yozuvchisi Jeyms Joys tomonidan yozilgan. U klassik yunon adabiyotidagi Odyssey dostoning Zamonaviy talqini bo'lib voqealar 1904-yilning 16-iyun kuni Dublin shahrida sodir bo'ladi.*

Asarning bosh qahramoni-Leopold Blum, uning rafiqasi Molli Blum va yosh talaba Stivin Dedalus. Roman uning kun davomida shaharda boshdan kechirgan ruhiy, jismoniy va falsafiy sayohatlarini aks ettiradi. Har bir bob turli uslub va til orqali yozilgan bo'lib, uning ichki kechinmalari va tafakkurlari oqimi – “ong oqimi” uslubida ifodalangan. Roman jamiyat, din, milliylik, shaxsiy izlanish va inson ongining murakkabliklari kabi mavzularni chuqur o'rganadi. “Uliss” modernizmning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi va bugungi kungacha adabiyotshunoslar, yozuvchilar va o'quvchilar orasida katta bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR: *Modernizm, ong oqimi, ichki monolog, falsafiy izlanish, Irlandiya jamiyati, Leopold Blum, Stiven Dedalus, Molli Blum, Dublin, Klassik, “Odisseya” ga ishora, diniy va milliylik masalali.*

АННОТАЦИЯ: *Роман Джеймса Джойса «Улисс» является одним из самых важных и сложных произведений литературы XX века. Произведение было опубликовано в 1922 году и было написано ирландским писателем Джеймсом Джойсом. Это современная интерпретация классического*



греческого эпоса «Одиссея», а события происходят в Дублине 16 июня 1904 года.

Главные герои произведения — Леопольд Блум, его жена Молли Блум и молодой студент Стивен Дедалус. Роман отражает его духовные, физические и философские путешествия, которые он переживает в течение дня в городе. Каждая глава написана в разном стиле и на разном языке, а его внутренние переживания и мысли выражены в стиле «потока сознания». Роман глубоко исследует такие темы, как общество, религия, национальность, личные поиски и сложности человеческого разума. «Улисс» считается одним из самых ярких примеров модернизма и по сей день вызывает большие споры среди литературных критиков, писателей и читателей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Модернизм, поток сознания, внутренний монолог, философское исследование, ирландское общество, Леопольд Блум, Стивен Дедал, Молли Блум, Дублин, Классика, отсылка к «Одиссее», религиозные и национальные проблемы.

ANNOTATION: James Joyce's novel "Ulysses" is one of the most important and complex works of 20th-century literature. The work was published in 1922 and was written by the Irish writer James Joyce. It is a modern interpretation of the classic Greek epic Odyssey, and the events take place in Dublin on June 16, 1904.

The main characters of the work are Leopold Bloom, his wife Molly Bloom, and the young student Stephen Dedalus. The novel reflects his spiritual, physical, and philosophical journeys that he experiences throughout the day in the city. Each chapter is written in a different style and language, and his inner experiences and thoughts are expressed in a "stream of consciousness" style. The novel deeply explores topics such as society, religion, nationality, personal search, and the complexities of the human mind. "Ulysses" is considered one of the most striking examples of modernism and to this day causes great controversy among literary critics, writers, and readers.



KEYWORDS: *Modernism, stream of consciousness, internal monologue, philosophical inquiry, Irish society, Leopold Bloom, Stephen Dedalus, Molly Bloom, Dublin, Classic, reference to the "Odyssey", religious and national issues.*

KIRISH

Adabiyotda shunday asarlar bo'ladiki ularni o'qish emas asarlarda yashash kerak. Jeyms Joysning "Uliss" romani ana shunday asarlardan biridir. U roman emas balki inson ongining cheksiz labiriantiga aylangan bir kunlik sayohatdir.

Oddiy Dublin shahri, oddiy odamlar, oddiy hayot. Ammo Joys bu oddiylik ortidan favqulotda oddiylik yaratadi. "Uliss"- bu nafaqat Gomerining qadimiy eposiga zamonaviy javob, balki inson ruhining, tafakkurining, ehtiros va iztiroblarining chuqur tahlilidir.

Leopold Blumnim shaharda kezishi – bu aslida har bir insonning hayot degan izziz yo'ldagi ruhiy kezishidir.

Joys o'z asari orqali so'zning chegarasini buzadi, shaklni parchalab, adabiyotni tubdan yangilaydi. Bu romanni anglas oson emas, ammo his qilish, mulohaza qilish, o'z ustida ishlashga undovchi bebaho asardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Romanni modernistik adabiyotining eng yorqin namunasi hisoblanadi. Joys bu asarda an'anaviy roman tuzilmasidan butunlay voz kechib, o'ziga xos uslubiy tajribalar orqali ong oqimi texnikasidan foydalanadi. Roman asosan ichki monologlar, ong oqimi, satira va parodiyalarga boy bo'lib, har bir bobda stilistik o'zgarishlar mavjud. Roman 18 bodan iborat bo'lib, har bir bobda har xil uslub qo'llaniladi. Strukturasi Gomerining "Odisseya" asariga asoslanadi.

Joys asarda har bir insonning o'zligini topishga intilishi, diniy, madaniy va milliy omillar ta'sirida o'zinin anglash jarayoni yotadi. Stilln Dedalus orqali yoshlikdagi izlanishlar, Leopald Blum orqali esa kattalar dunyosidagi ajralganlik ko'rsatiladi. Har bir qahramonning fikrlari, his-tuyg'ulari va xotiralari to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadi. Joys ruhiy holatni matnda tabiiy oqim shaklida beradi.



Asarda 1904-yil 16-iyun kuni bir kunlik hayot tasvirlanadi. Bu orqali Joys oddiy holatni epik darajada yoritadi. Bu kundalik voqealar orqali inson hayotining ichki murakkabliklari ochiladi. Irlan jamiyati, katolik cherkovining inson tafakkuriga ta'siri axloqiy me'yorlari haqida tanqidiy munosabat mavjud.

Leopold Blum – yahudiya kelibchiqishiga ega, reklama agenti. Tashqi dunyodan chetlanib qolgan, ammo ichki olami boy. U “oddiy inson”, lekin Joys uni epik qahramon darajasiga ko'taradi.

Stilen Dedalus – yozuvchilik orzusi bor yosh talaba. U Joysning o'ziga o'xshash alter – ega siymosidir. Uning diniy, falsafiy izlanishlari romanda asosiy g'oya hisoblanadi.

Molli Blum – erining sodiqligi va oilaviy munosabatlari haqida murakkab obraz. Roman oxiridagi monologi ayol ongining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Dublin- bir shahar emas, balki jamiyat, madaniyat va tarix timsoli”. Uills’’romani modern adabiyotiga tub burilish olib kelgan yozuvchi bu asarida XX asr romanining chegaralarini kengaytirgan.

MUHOKAMA

Joysning “Uills” asari ko'pchilik tomonidan eng murakkab romanlarda biri deb e'tirof e'tiladi. Uning tili, struktura, o'zgaruvchanligi va ong oqimi uslubi ba'zilar uchun asarni o'qishni qiyinlashtiradi. Bu murakkablik Joysning adabiy jasorati va yangillikka intilishi sifatida baholanadi. U inson tafakkurining haqiqiy jarayonini ifodalashga harakat qilgan. Blum oddiy inson – yahudiy bo'lishi sababli jamiyatda ajralib turadi. U na jasur, na kuchli, ammo u mehribon, bag'rikeng va ichki dunyosi boy. Joys epik qahramon obrazini oddiy inson timsolida yaratadi. Bu zamonaviy adabiyotga xos yondashuv. Ba'zilar Leopold Blumda harakat yo'qligi, faollik yetishasligi tufayli u betaraf va rangsiz obraz deb hisoblaydi.

Roman oxirida Molli Blumning ichki monologi joylashgan bo'lib, u 40 sahifalik bir butun paragrafdir. Bu joyda ayol tafakkuri, istaklari va ehtirolari ochiq-oydin ifodalanadi. Bu qism feministik adabiyotda katta o'rin egallaydi. Molli – o'z tanasi, fikri va hislari ustida hukmron bo'lgan ayol obrazidir. Ayrimlar uni axloqiy chegarani buzuvchi, haddan ortiq erkin va ochiq tasvir sifatida tanqid qiladi.

**XULOSA**

“Uills” romani o‘z murakkabligi bilan ajralib tursa-da,u inson tafakkuri, jamiyatdan ajralganlik,diniy va milliy identet, axloqiy izlanishlar kabi mavzularni yaratishda beqiyos adabiy yondashuv namunasidir. Joys bu asarida inson ichki dunyosini tilda qanday ifodalanish mumkinligini amalda isbotlaydi. “Uliss” romani-bu oddiy hayotning murakkab talqini , zamonaviy insonning ichki olami , fikrlash jarayoni va ma’naviy izlanishlarining badiiy timsolidir. Joys bu asar bilan nafaqat XX asr adabiyotiga , balki butun inson tafakkuriga ta’sir ko’rsatgan ulkan yozuvchidir. “Uliss” - bu kun safar qayta o’qilganda yangi ma’nolar kashf qilinadigan cheksiz adabiy olamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Yoqubov , “Jahon adabiyoti tarixi” Toshkent : O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi , 2005
2. Karimov B . “Adabiyotshunoslikka kirish” Toshkent:2011
3. Saidahmedova N . “Jahon adabiyoti nazariyasi” Toshkent :2017
4. Ergashev A . “Ingliz adabiyoti tarixi” Toshkent:2016
5. Turdikulov A. “Adabiyot tahlili asoslari ” Samarqand :2020